

ADABIYOT VOSITASIDA MA`NAVIYATNI SHAKLLANTIRISH

Shoira Ishanchayeva Baxramjanovna

Andijon davlat tibbiyot instituti akademik litseyi.

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada inson ma`naviyatini rivojlantirishda adabiyotning o`rni, sho`rolar davridagi va hozirgi adabiyotning farqi, yurtboshimizning adabiyotni rivojlantirishdagi keng ko`lamli islohotlari haqida so`z yuritiladi.

KALIT SO`ZLAR: mumtoz va zamonaviy adabiyot, estetik hissiyot, kitobxonlik madaniyati, insonparvarlik, Abdulla Avloniy

FORMATION OF SPIRITUALITY THROUGH LITERATURE

ANNOTATION

This article describes the role of literature in the development of human spirituality, the difference between the Soviet period and the current literature, and the wide-scale reforms of our country's president in the development of literature.

KEYWORDS: classic and modern literature, aesthetic feeling, reading culture, humanitarianism, Abdulla Avloni

KIRISH

«Adabiyot, san`at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi»

Shavkat Mirziyoyev

O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning mazmun-mohiyatiga ko'ra asosiy e'tibor ta'lim sifati va ta'lim beruvchining har tomonlama mukammal bo'lishiga qaratilgan bir paytda, bilimlar poydevori sanalgan maktab asosiy o'rin egallaydi. Maktab bu kichik bir boshqarma. Unda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining o'ziga xos bo'lgan talab va majburiyatlari mavjud. Zamonaviy o'qituvchi eng avval mas'uliyatli va namunali muomala odobiga ega bo'lishi lozim. Shu bilan birga o'quvchilarini seva olishi, ya'ni bolajon bo'lishi, o'quvchisining tuyg'usini his qila olish darajasida psixolog bo'lishi kerak. Barkamol va har tomonlama salohiyatli yoshlarni tarbiyalash masalasi har bir ijodkor asarlarining bosh g'oyasi sanaladi. Bolaning shaxs sifatida voyaga yetishi eng birinchi oilaga borib taqaladi. U asosan oila muhitida tarbiyalanib, inson sifatida shakllanadi. Tarbiya esa hayotning eng muhim tayanchi sanaladi. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, toki u yaxshi o'qishi bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin.

Bugungi kunda O‘zbekiston o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Biz milliy tiklanishdan – milliy yuksalishga erishishni o‘z oldimizga eng muhim va ustuvor vazifa qilib qo‘ydik. Bu ulug‘ maqsadga esa jahon ahli bilan hamjihat va hamkor bo‘lib yashash, ochiq demokratik jamiyat qurish, hayotimizda milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini yanada keng qaror toptirish orqaligina erishish mumkinligini biz yaxshi anglaymiz.

Ayni shu nuqtai nazardan qaraganda, o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilish, ko‘pqirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, hozirgi notinch va tahlikali zamonda butun bashariyat oldida paydo bo‘layotgan, biz ilgari duch kelmagan g‘oyat murakkab muammolar, global xavf-xatarlarni birgalikda bartaraf etish, shu yo‘lda barcha ezgu niyatli insonlarni birlashtirishda, dunyo aholisining qariyb uchdan bir qismini tashkil etadigan yoshlarni gumanistik g‘oyalar ruhida tarbiyalashda badiiy so‘z san‘atining o‘rni va mas‘uliyatini har qachongidan ham yuksaltirish zarurligini bugun hayotning o‘zi taqozo etmoqda.

Bu borada O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan e‘tiborga molik ishlar, xususan, ilm-fan, ta‘lim-tarbiya, madaniyat, san‘at va adabiyot sohalarini izchil rivojlantirish, bozor iqtisodiyoti sharoitida ilm va ijod ahlini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, kitobxonlik madaniyatini oshirish kabi vazifalar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan

ASOSIY QISM

Adabiyot va san‘at asarlari mustaqil respublikamiz fuqarolari ma‘naviy dunyosini boyitish, ularni go‘zal narsalarning hammasidan bahramand qilish kabi ajoyib xususiyatlarga ega. Ma‘naviyat, yuksak badiiy, jozibali adabiyot va san‘at asarlari kishilar qalbiga tezroq yo‘l topish, estetik hissiyotiga kuchli ta‘sir qilish, hayotiy voqea-hodisalarni chuqur mushohada etishga da‘vat etish kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shuning uchun adabiyot va san‘at asarlarining kishilarni yuksak ma‘naviy-axloqiy ruhda tarbiyalashdagi badiiy ta‘sir etishdek vositalik xususiyatidan imkoni boricha kengroq foydalanish muhim ahamiyatga egadir.

Adabiyot va san‘at asarlarining kuchi uning xalqchil va tushunarligida, kishilar ichki — ruhiy dunyosiga emosional ta‘sir ko‘rsata olishidadir. Ma‘naviy barkamol avlodni tarbiyalashda adabiyot va san‘atning ana shu xususiyatini hisobga olish muhimdir.

Ma‘naviy tarbiyada o‘zbek xalqining boy ma‘naviy merosidan keng foydalanish uning ta‘sirchanligi, samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘la oladi. Yoshlarimiz ma‘naviy tarbiyasida Yusuf xos Xojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Mashrab, Muqumiy, Furqat, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Usmon Nosir kabi mumtoz shoir va yozuvchilarimiz asarlaridan foydalanishimiz ular qalbini, ruhiy

dunyosini ma'naviy boyitishda katta ahamiyatga egadir. Ularning bizga qoldirgan boy badiiy-ma'naviy merosi o'zining chuqur falsafiy mazmuni, axloqiy yo'nalishi bilan ajralib turadi.

Mumtoz san'atkorlarimiz asarlarida halollik va poklik, to'g'rilik, bironing haqiga ko'z olaytirmaslik, xiyonat qilmaslik, insonparvarlik, vatanparvalik, mehnatsevarlik, diyonatlilik, iymonlilik, halol luqma bilan kun ko'rish, ota-onani hurmat qilish kabi inson uchun zarur ma'naviy xislatlar yuqori badiiy saviyada bayon etilgan.

Ma'naviy tarbiyada Pirimqo'l Qodirov, Odil Yoqubov, Sayd Ahmad, O'tkir Hoshimov kabi yozuvchilarimiz; Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Oydin Hojiyeva, Omon Matchon kabi shoirlarimizning asarlaridan ham keng foydalanish, badiiy asarlar, ulardagi qahramonlarning fe'l-atvori, axloqi, ma'naviy dunyosi to'g'risida suhbat, munozara o'tkazish katta samara beradi.

Ma'naviy tarbiyada kishilar ongi, ruhiyatiga ta'sir etishda teatr san'atining ham roli, o'rni va ahamiyati, ta'sir etish doirasi imkoniyatlari cheksizdir. Biz teatr san'atini ikki tomoni charxlangan shamshirga o'xshatishimiz mumkin. U bir tomoni bilan kishilar qalbiga yorug'lik olib kirsam, uni yuksak ma'naviylik tomon yo'llasa, ikkinchi tomoni bilan inson qalbidagi nodonlik, jaholat, ya'ni, ma'naviyatsizlikka va jaholatga qarshi kurashadi.

Sho'rolar davrida, avlod-ajdodlarimizning o'g'itlari, pand-nasihatlari, ajoyib an'analarimiz targ'ib qilinish o'rniga nuqul qoralandi, yomon otli qilindi, bid'at, xurofot, deb baholandi. Milliy tarbiya borasidagi merosimiz o'rganilmadi, targ'ib etilmadi. Ularning o'rniga ta'lim-tarbiya borasida Yevropa, Rusiya modelini ko'klarga ko'tarib maqtab, targ'ib qilib, yoshlarimizni o'z milliy qadriyatlarimizdan bebahra qilib qo'ydik. Ana shu tufayli diniy-axloqiy, oila, qo'ni-qo'shni, mahalla-ko'ylar ta'siri kabi ta'lim-tarbiyaning hayot sinovidan o'tgan bebaho boyliklaridan judo bo'la boshladik. Mustaqilligimiz tufayli bularga chek qo'yildi, bunday salbiy illatlarni tugatish borasida sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu o'rinda o'zbek adabiyotining buyuk allomasi – Avloniyning adabiyotga qilgan xizmati haqida biroz to'xtalsak.

Shoir o'tmishda ma'rifat gulshani bo'lgan yurtimizning jaholat botqog'iga botganidan afsuslar chekib, vatanimiz tobora vayronaga aylanayotgani, ilm-ma'rifatga oshno qalblargina bunday balodan qutulishini ta'kidlaydi. Shu ma'noda shoirning "Ilmga targ'ib", "Jaholat", "Istiqboldan orzularim", "Millatga salom" she'rlari millat farzandlariga xitob tarzida bitilgan. Umuman, A.Avloniy "Birinchi muallim" va "Ikkinchi muallim" kitoblarida yosh kitobxonlar tafakkuriga mos ilm xosiyati va ilmsizlik oqibati to'g'risida pandnoma tarzidagi satrlarni bitgan bo'lsa, "Maktab gulistoni"dagi she'r, hikoya va masallarda ijtimoiy dolzarb muammolarni ham qamrab olishi oydinlashadi. Ayniqsa, "Saxiylik" va "Baxillik" nomli hikoyalari maktabda tahsil olayotgan bolalar duyoqarashida katta ta'sir ko'rsatadi. Birinchi hikoyada Said ismli bolaning maktab yo'lida bir faqir kishini uchratib qolganligi va yoshgina bolaning bag'ri kengligi hikoya qilinadi. Bu voqeadan xabar topgan otasi Saidni mukofotlaydi. Bu o'rinda bola tarbiyasida saxiylik va bag'rikenglik g'oyalari tarannum etiladi. Ikkinchi

hikoyada esa baxillikning yomon oqibatlari bir badavlat kishi misolida talqin etiladi, uning baxilligi, ziqnaligi va pastkashligi qoralanadi.

Bunday asarlar orqali yosh avlodni ma’rifatga da’vat etish bilan birga, ularni vatanparvar, o’z millatiga, yurtiga sadoqatli qilib tarbiyalash maqsadi yetakchi o’rin egallaydi. Umuman olib qaraganda, adabiyot pedagogika fani bilan uzviy bog’liq. Adabiyotda yozilgan har qanday asar mazmunida kelajak avlod tarbiyasi yotadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ma’naviy tarbiya bugungi kunning eng dolzarb masalasi. Mamlakatimizda tarbiyani hozirgi zamon talablari darajasida olib borishda mavjud barcha imkoniyatlar va vositalardan samarali foydalanganimizdagina ma’naviyati yuksak yoshlarni tarbiyalashga erishish mumkin bo’ladi.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. –T.: O‘zbekiston, 2000 y.
2. “Bolalar adabiyoti va zamonaviylik”. T: Fan 1981.
3. Dilova N.G. (2021). Sharq allomalarining ilmiy merosi – uchinchi renessans uchun katta imkoniyat. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 506-514 betlar
4. Barakayev R. “A.Avloniy va bolalar adabiyoti”. T: Fan, 2004.